

*Eshmuratova Dildor Normuratovna**Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li**Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUQAROLIK TARBIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda fuqarolik tarbiyasining ahamiyati, uning shaxs kamolotidagi o'rni va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil etilgan. Fuqarolik tarbiyasi yosh avlodni vatanparvarlik, huquqiy ong, ma'naviy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash jarayoni sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada fuqarolik tarbiyasining asosiy tamoyillari, ta'lim muassasalarining bu boradagi roli hamda oilaviy tarbiyaning ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati tushunchalarining yosh avlod ongida shakllanishi ham muhim jihat sifatida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik tarbiyasi, zamonaviy jamiyat, vatanparvarlik, huquqiy ong, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat, ta'lim, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, demokratik qadriyatlar

Аннотация: В данной статье анализируется значение гражданского образования в современном обществе, его роль в развитии личности и влияние на развитие общества. Гражданское воспитание рассматривается как процесс воспитания молодого поколения в духе патриотизма, правосознания, нравственной зрелости и социальной ответственности. В статье широко освещены основные принципы гражданского воспитания, роль образовательных учреждений в этом отношении, значение семейного воспитания. Также в качестве важного аспекта было подчеркнуто формирование демократических ценностей, прав человека и концепций гражданского общества в сознании молодого поколения.

Ключевые слова: Гражданское образование, современное общество, патриотизм, правосознание, нравственная зрелость, социальная ответственность, образование, гражданское общество, права человека, демократические ценности

Abstract: This article analyzes the importance of civic education in modern society, its role in personal development and its impact on the development of society. Civic education is considered as a process of educating the younger generation in the spirit of patriotism, legal awareness, spiritual maturity and social responsibility. The article broadly covers the basic principles of civic education, the role of educational institutions in this regard, and the importance of family education. The formation of democratic values, human rights and civil society concepts in the minds of the younger generation is also emphasized as an important aspect.

Keywords: Civic education, modern society, patriotism, legal awareness, spiritual maturity, social responsibility, education, civil society, human rights, democratic values

Zamonaviy jamiyatda fuqarolik tarbiyasi inson kamoloti va jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot fuqarolik madaniyatini yuksaltirish zaruratinini yanada oshirmoqda. Fuqarolik tarbiyasi yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirish, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini

anglashiga xizmat qiladi. Bugungi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va fuqarolik burchlarini tushunish fuqarolik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Ta'lif muassasalari, oilaviy muhit hamda ijtimoiy institatlarning bu boradagi o'rni beqiyosdir. Shu sababli, fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish, uni jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantirish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Har bir jamiyatning taraqqiyoti bevosita uning a'zolarining ma'naviy va huquqiy ongiga, ijtimoiy faolligiga bog'liq. Shu boisdan fuqarolik tarbiyasi har bir shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi hamda Vatanga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy jarayondir. Fuqarolik tarbiyasi yosh avlodni ongli va vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash, ularning demokratik qadriyatlarni qadrlashi, qonunlarga hurmat bilan yondashishi va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi uchun zamin yaratadi. Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar va jamiyatlar oldida yoshlarni milliy o'zlikni saqlagan holda, dunyoviy tamoyillarga ochiq, huquqiy madaniyatga ega va faol fuqarolar sifatida tarbiyalash vazifasi turibdi. Ayniqsa, demokratiya, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatni tamoyillari tobora mustahkamlanib borayotgan bir davrda fuqarolik tarbiyasining ahamiyati yanada ortmoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lif muassasalarida, balki oilada, mahallada, ommaviy axborot vositalarida va butun jamiyat miqyosida amalga oshirilishi kerak.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni buniyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq. Fuqarolikning ijtimoiy assosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalari, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi.[1]

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitusiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqliqdir. Fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi.[2]

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shartsharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to'la mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamlı (kompleks) tarzda tashkil etish – bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lif muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.[3]

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi. Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashxis qo'yish), statistik va qiyosiy tahlilni olib borish lozim. Ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olish (o'z vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik;
- milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzları (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, ma'sullik;
- ijtimoiy huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish haqida qayg'urish;
- davlat tili, milliy madaniyat va an'analarga sodiq, ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona va ma'suliyatli munosabatda bo'lish;
- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;
- to'g'riso'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lish;
- o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan ma'suliyatli bo'lish;
- baynalminallik, o'zga mamlakatlarning xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar. [4]

Fuqarolik tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq o'tmishini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usini qaror toptirish sanaladi. Shaxs ham, jamiyat ham o'tmishni o'rganish, uning har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi. O'tmis mutafakkirlarining qarashlari, boy ma'naviy meros g'oyalari bugungi avlod uchun dasturilamal bo'lishi lozim. Allomalar, xalq qahramonlari hayotini o'rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar g'oyalalarini o'rganish asrlar davomida ardoqlanib kelgan an'ana, urf-odat, marosimlar millatni bu qadar jipslashganligi siridan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga o'quvchilarni jalg etish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan yo'l sanaladi. O'quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta'minlanadi. Yosh avlodda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko'nikmalarni shakllantirib bo'lmaydi.[5]

1991 yilda O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi e'lon qilindi. Mustaqillik o'zbek xalqining ming yillik orzusini amalga oshirdi va o'zining taraqqiyot yo'lini tanlab olishga imkon berdi. Milliy Mustaqillik o'zbek xalqining chinakam ma'noda fuqarolikni his qilish imkoniyatini

berdi, kishilarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi tubdan o‘zgardi. Xalqni yagona maqsad yo‘lida birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga undaydigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini ifodalaydigan milliy g‘oya va mafkurani yaratish orqali jamiyat a’zolarini fuqarolik ruhida tarbiyalash, ularning faol hayotiy pozitsiyani egallashlarini ta’minlash ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotning muhim sharti sifatida maydonga chiqdi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri – tanlagan taraqqiyot yo‘limizning to‘g‘ri, adolatlvi va haqqoniy ekanligiga, mafkura mamlakatimizda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga ishontirish, fuqarolarni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi bunyodkorlik ishlariga safarbar etishdan iborat bo‘lib, u odamlar o‘rtasida hamjihatlik, totuvlik, o‘zaro yordam, vatan taraqqiyoti va istiqboli uchun qayg‘urish xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.[6]

Fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o‘quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me’yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o‘quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xattiharakatlarga oid namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat uyuşhtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g‘oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ‘ib etib borish orqali o‘quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg‘usini bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqliр. Buning uchun «Respublika bayrog‘ida nimalar aks ettirilgan?», «Respublika gerbida nimalar tasvirlangan?», «Humo qushi tasviri qanday ma’noni anglatadi?», «Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?» kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir. O‘quvchiga fuqaro sifatida o‘z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya’ni, «Bugun xalq farovonli, Vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?», «Zimmamdagи burchni qanday ado etdim?» tarzidagi savollarga javob topishga o‘rgatish kerak. Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqr o‘zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o‘z majburiyatlarini to‘laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqliр. Fidoiylik, intiluvchanlik, tashkilotchilik, qat‘iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o‘quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi.[7]

Zamonaviy jamiyatda fuqarolik tarbiyasining ahamiyati beqiyosdir. Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi o‘rnini va vazifalarini tushunishga yordam beradi, bu esa fuqaro va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Fuqarolik tarbiyasining asosiy maqsadi – insonlarga o‘z huquq va erkinliklarini bilish, lekin bir vaqtning o‘zida jamiyatdagi mas’uliyatli va huquqlarga mos ravishda burchlarni ham anglashni o‘rgatishdir. Bu jarayon orqali fuqarolar nafaqat o‘z huquqlarini himoya qilishni, balki boshqa fuqarolar va jamiyat manfaatlarini ham inobatga olishni o‘rganadilar. Bugungi kunda global muammolar, ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik va siyosiy beqarorlik kabi masalalar fuqarolarni jamiyatda faol va mas’uliyatli bo‘lishga undaydi. Fuqarolik tarbiyasi yordamida fuqaro nafaqat qonunlarga riosa qilishni, balki demokratiya va erkinlikni himoya qilish, inson huquqlariga hurmat ko‘rsatish kabi prinsiplarni ham chuqurroq anglaydi. Fuqarolik tarbiyasining zamonaviy jamiyatdagi o‘rn shundaki, u nafaqat individuallarni, balki jamiyatni ham uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Jamiyatda tinchlik, barqarorlik vaadolatni ta’minlash uchun fuqarolar orasida hamjihatlik, bir-birini tushunish va hurmat qilish muhimdir. Fuqarolik tarbiyasi orqali bu qadriyatlar shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga, fuqarolik tarbiyasi ijtimoiy muammolarni hal qilishda, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z huquqlarini bilgan va jamiyatga mas’uliyatli yondashgan shaxslar jamiyatda farovonlikka erishish, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta’minlash,adolatl boshqaruvni yaratishga hissa qo’shadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik tarbiyasi zamonaviy jamiyatda barqarorlikni, taraqqiyot va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda, shuningdek, fuqarolarni jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zolari sifatida shakllantirishda muhim rol o'yinaydi. Fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish, har bir fuqaroni jamiyatda faol, mas'uliyatli va qonunlarga hurmat bilan yashashga o'rgatish bugungi kunda yanada dolzarb vazifaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Rahmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Fan va texnologiya nashriyoti, Toshkent – 2010
2. O. Musurmonova "Umumiy pedagogika" Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2020
3. B. X. Xodjayev "Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
4. Савин Н. В. Педагогика. Учеб. пособие двд пед. училищ. Изд. 2-е, доп.4- М., «Просвещ ени е», 1978.
5. S. Usmonova Ta'lif jarayonida noan'anaviy darslarga ijodiy yondashish usullari. -Buxoro: "Pedagogik mahorat" jurnali, 2005-yil, 2-son.
6. S. A. Tursunqulova O'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023
7. U. Mahkamov O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
8. Eshmuratova, Dildor. "MAKTAB O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA DEKLARATIV BILIMLARGA ASOSLANGAN INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI". E konferentsiya zonas . 2023 yil.
9. Eshmuratova, Dildor. "METHODS OF USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES BASED ON DECLARATIVE KNOWLEDGE IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO SCHOOL STUDENTS." E Conference Zone. 2023.
10. Eshmuratova Dildor Normuratovna, Fayziyeva Ozoda Erkin qizi "YOSHLARNING SHAXSIY RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR". International journal of scientific researches. 2024
11. Eshmuratova Dildor Normuratovna, Xudoyqulova Sevinch Sherzod qizi "TA'LIM JARAYONLARIDA YOSHLARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI" International journal of scientific researches. 2024